O‘SMIRLARDA METABOLIK SINDROMDA QONNING BIOKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARINI JINSNI HISOBGA OLGAN HOLDA QIYOSIY BAHOLASH

Sultanova Muyassar Islom qizi
Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O‘zbekiston

Dolzarbligi. Hozirgi kunda bolalar va o‘smirlar orasida ortiqcha tana vazni, semizlik hamda insulinrezistentsiya bilan kechadigan metabolik sindromning (MS) tarqalishi jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda. Xorazm viloyati kabi hududiy xususiyatlarga ega mintaqalarda o‘smirlar organizmida yuzaga keladigan metabolik o‘zgarishlarni, xususan, qonning biokimyoviy parametrlarini jinsiy dimorfizmni (jinsiy farqlarni) inobatga olgan holda o‘rganish kasallikning erta oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. O‘smirlarda metabolik sindrom fonida qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlarini jinsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda qiyosiy baholash va ularning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat.

Material va usullar. Tadqiqotga Xorazm viloyatida istiqomat qiluvchi 12–17 yoshdagi metobolik sindrom tashxisi qo‘yilgan 120 nafar o‘smir jalb qilindi (shundan 64 nafari o‘g‘il bolalar, 56 nafari qizlar). Taqqoslash guruhi uchun mos yoshdagi 50 nafar amalda sog‘lom o‘smirlar olindi. Bemorlarda qon zardobidagi glyukoza, xolesterin, trigliseridlar, past zichlikdagi lipoproteidlar xolesterini (PZLP-X) hamda HOMA-IR indeksi aniqlandi. Olingan natijalar statistik jihatdan o‘rtacha qiymatlar, Studentning t-mezoni va korrelyatsion tahlil yordamida ($p<0,05$) baholandi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan biokimyoviy tahlillar metabolik sindromli o‘smirlarda jinsiy xususiyatlarga ko‘ra qator farqlarni ko‘rsatdi. Jumladan, o‘g‘il bolalarda qon zardobida trigliseridlar miqdori o‘rtacha 1,9±0,4 mmol/l ni tashkil etib, qizlarga (1,6±0,3 mmol/l) nisbatan biroz yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi ($p<0,05$). Shu bilan birga, qiz bolalarda insulinrezistentsiya ko‘rsatkichi bo‘lgan HOMA-IR indeksi yuqori bo‘lib, o‘rtacha 3,8±0,7 birlikni (o‘g‘il bolalarda 3,2±0,6 birlik) tashkil etdi ($p<0,05$).

Qon zardobidagi umumiy xolesterin va PZLP-X ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan barcha guruhlarda sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Korrelyatsion tahlil tana vazni indeksi (TVI) va qorin aylanishi o‘smir qizlarda lipid almashinuvi buzilishlari bilan o‘rtacha kuchli ijobiy

bog‘liqlikni namoyon etdi (r_s=0,61; $p<0,001$), o‘g‘il bolalarda esa bu bog‘liqlik uglerod almashinuvi ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘ldi (r_s=0,55; $p<0,01$).

Xulosa. O‘smirlarda metabolik sindromning biokimyoviy profili aniq jinsiy xususiyatlarga ega bo‘lib, xususan, uglerod almashinuvi buzilishlari va insulinrezistentsiya qizlarda, dislipidemiya va trigliseridlar miqdorining oshishi esa o‘g‘il bolalarda ustunlik qiladi. Olingan natijalar metabolik buzilishlarni erta aniqlash va davolash taktikasini jinsiy yondashuv asosida optimallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.